

## IKKI BUYUK ADIBLARNI BIRLASHTIRGAN ULUG‘BEK

**Abdujabborova Feruza Bahodir qizi**

Nizomiy nomlidagi TDPU O‘zbek tili  
va adabiyoti fakulteti 302-guruh talabasi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi va Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanini qiyoslagan holda tahlilga tortdik. Ularning yutuq va kamchiliklariga e’tibor qaratildi.

**Kalit so‘zlar:** Astronomiya, xarakter, obraz, shamshir, Mirzo Ulug‘bek, Amir Temur, Abdulatif, tragediya, roman, rasadxona, toj, taxt, vasiyat, tarix.

Turkiston. O‘z bag‘riga necha-necha buyuk tarixlarni singdirib yuborgan o‘lka. Sharq har sohada qadimdan G‘arbga ustoz bo‘lib kelgan. Bizning buyuk ajdodlarimiz olam va odamga aloqador bo‘lmish adabiyot, tibbiyot, astronomiya, riyoziyot, falsafa va bir qancha fanlar rivojiga tamal toshini qo‘yganlar. Biz esa ularning xotiralarini abadiylashtirishimiz, ularga izdosh munosib avlod bo‘lishimiz lozim. Ming afsuslar bo‘lsinkin, Sobiq sho‘ro davrida bizning o‘tmishimiz, ajdodlarimiz qoralanib, ularning pok yodlarini ongimizdan va qalbimizdan o‘chirishga harakat qilishdi. Shunday bir tahlikali zamonda ham bir qancha adiblarimiz ularni o‘z asarlari orqali xalqqa tanitdi. Bu ish uchun anchayin jasorat talab etilardi. XX asrning zabardast vakillaridan Maqsud Shayxzoda va Odil Yoqubovlar bir mavzu atrofida birlashdilar. Ular o‘z ijodlarida ko‘pgina tarixiy shaxslarni yoritdi. Maqsud Shayxzoda shaxsiy hayotida ko‘pgina qiyinchilik, aldov va xiyonatlarga uchragan bo‘lishiga qaramasdan u o‘z asarlarida bu haqida keltirmaydi. Jaloliddin Manguberdi hayotini Sovetlar iltimosiga binoan yozib, yana ulardan bu ishi uchun jazo ham oladi. Shunga qaramay u qo‘rqmay tarix zarvaraqlarining buyuk bir shaxsi bo‘lmish Mirzo Ulug‘bek haqida asar bitadi. Yozuvchi shunday degan: “Inson umri cheklangan muhlati daftar, demakki bu daftarni foydali, ezgu ishlar bilan to‘ldirishimiz kerak”. Yana bir davrni buyuk adiblaridan Odil Yoqubov ham ijodi davomida hech qo‘rqmay tarixga yuzlanadi. U nafaqat Ulug‘bek, shu bilan bir qatorda Bobur, Humoyun, Akbar, Ibn Sino, Beruniylarning hayotini qalamga oladi. Hamda yozgan ushbu asarlarini bari mukammal yaratilgan deyishimiz mumkin. Biz ushbu maqolada Ulug‘bek obrazini tahlilga tortishni niyat qildik. Maqsad Shayxzoda 1964-yilda birinchilardan bo‘lib, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini yozadi. Ayni shu mavzuga 1973-yil “Ulug‘bek xazinasi” romani bilan Odil Yoqubov kirib keldi.

Asarlarni o‘qir ekanmiz ularning til xususiyatlari, har bir jumladan o‘rinli foydalanganiga guvoh bo‘lamiz. Ikki asarda ham Mirzo Ulug‘bekning shaxsiyati tarixiy haqiqat hamda badiiy to‘qima asosida yoritib berilgan .

Shayxzoda o‘z asarida Ulug‘bekning hayotini to‘laroq yoritib, uning xarakter - xususiyatlarini ochishda tarixiylik bilan bir qatorda to‘qima obrazdan ham ko‘p o‘rinlarida foydalanadi. Odil Yoqubov esa asosiy urg‘uni Ulug‘bekning so‘nggi kunlari va shogirdlarining fazilatlariga qaratadi. Ammo har ikki asarda ham ularni birlashtirib turuvchi mushtarak va farqli jihatlar uchraydi:

**1. Amir Temur obrazining tasvirlanishi va Ulug‘bekning bobosini xotirlab undan madad so‘rashi.** Maqsud Shayxzoda Temurni anchayin qattiqqo‘l va shafqatsiz tasvirlaydi. Asarda Temur arvohi : “O‘g‘lim, sening irodangni yeb qo‘ydi kitob”. “Insoniyat tarixining qalami -shamshir”[1.210] deb keltiriladi. Odil Yoqubovda esa Temur bunyodkor shaxsligiga ishora etilgan. Amir Temurning Oqsaroy qurdirgani, “Bog‘i bihisht” barpo etgani keltiriladi. Unda Ulug‘bek:“ Misriya xurmolari-yu, xushbo‘y xitoy olmalarni, Hindistondan esa ajoyib banan daraxtini keltirib o‘stirgan edi” [2.59]- deyiladi.

## **2. Abdulatif obrazining tasvirlanishi.**

“Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida Abdulatif ayyor bo‘lib tasvirlangan. U otasi unga taxtni topshirsa, unga va kitoblariga zarar yetkazmaslikka va‘da beradi-yu, bajarmaydi.

“Ulug‘bek xazinasi”da esa Abdulatif adolatsiz va rahmsizligi kuchli tasvirlangan. Otasi unga 2 bora xat yozib, kitoblarini, madrasani va shogirdlarini tinch qo‘ysa unga hokimiyatni o‘z qo‘li bilan topshirishini ma‘lum qilsa ham berahm farzand bu takliflarni qabul etmaydi. Ikki shoh bir saltanatga sig‘maydi qabilida ish tutadi.

**3. Har ikkala asar ham Rasadxona tasviri bilan boshlanishi.** Bunga sabab asar boshidan kitobxonni Ulug‘bekning dunyosiga, muhitiga olib kirishdir. M. Shayxzoda Ulug‘bekning faoliyatini shu tasvir vositasida yoritib, uning olim sifatidagi ishlari, shoh sifatidagi adolatli hukmlarini keltiradi. O.Yoqubovda esa Ulug‘bekning fojiali yakuni haqida dastlabki belgilar beriladi.

**4. Mirzo Ulug‘bekning Abbos tomonidan o‘ldirilishi.** Tragediyada Ota Murodning uyidaligida Abbos bostirib kelib, uni hiyla bilan (fonuslarni o‘chirib qo‘yib) shohni qo‘lidan yaralab o‘ldiradi. Romanda esa, shoh tahorat olishga chog‘lanayotgan vaqtida eshikdan Sayid Abbos bostirib keladi. Avval uni bo‘g‘ib, qurbonlik qo‘ydek sudrab , vahshiylarcha boshidan chopib tashlaydi. Ikki adibimiz ham shohning so‘nggi vasiyatini keltirib o‘tadi. Vasiyat ham bir xil keltirilgan-Kitoblarni asrash, ilm o‘chog‘ini so‘ndirmaslik haqida edi .

**5. Mirzo Ulug‘bekning o‘limidan oldingi holati tasviri.** Tragediyada Ulug‘bek oxirgi lahzalarda Berdiyorni yonida bo‘lmaganiga afsus yeydi. Shunday keltiriladi: “Hay, Berdiyori, nega yo‘qsan shu damda o‘zing? Nega seni jo‘natdim o‘zimdani yiroq”

[1.250] deydi. Romanda esa shoh yonida Aliqushchi yo‘qligidan kuyunadi. Asardan” Ali Qushchini eslashi bilan ko‘ziga yosh keldi.– Attang. Boya nechun uni orqaga qaytardi?”[2.158]– deb muallif tilidan keltiriladi.

Har ikki asarni o‘qish jarayonida bir qancha bahsli o‘rinlarga ham duch keldik. Bizning fikrimizcha, “Mirzo Ulug‘bek” da biroz tarixiy xatolik uchraydi. Jumladan Xo‘ja Ahror obraziga qarasa, u Mirzo Ulug‘bekka qarshi qo‘yilgan. Tarix bo‘yicha olib qaralsa u Ulug‘bekning o‘limidan so‘ng Samarqandga kelgan. Ular xato bir - birlarini ko‘rmagan bo‘lish ehtimoli yuqori. Ammo undagi har bir so‘z, har jumla asarga o‘zgacha ruh bag‘ishlagan. Biz bu asardagi bir jumlada butun bir ma‘no yashirgan deb tahlil qildik. Tragediyadagi Piri Zindoniylar tomonidan: “Toj- boshdagi fikrga qafas”[1. 162] deb aytilgan misra uchraydi. Juda o‘ylab aytilgan gap. Haqiqatdan har kimdan qoluvchi bu toj insonni ko‘p narsadan to‘siq qo‘yarkan. Buni Ulug‘bekning o‘zi ham tan oladi. Shohlik paytida Zindoniyni qamoqdan chiqarmagan Ulug‘bek, shohlikni topshirgach eng so‘nggi iltimosi uni ozod qilish bo‘ladi. Naqadar chiroyli tasvir. U shohlikdan, ya‘nikim tojdan kechib, Zindoniyni tushunadi. “Ulug‘bek xazinasi” da ham shoh umrining oxirlarida shohlik beqarorligini, ilm-u urfonga qo‘shilgan hissasi abadiy qolishini tushunadi. Abdulatif ham shu toj uchun nimalar qilmadi. Qanday pastkashlikka borib yetdi. Tojni oldi ham, halovat topmadi. Olti oydan uzoqqa bora olmadi-yu, o‘ziga abadiy padarkush tamg‘asini olib ketdi. “Ulug‘bek xazinasi” romani ham o‘zining go‘zal badiiyati bilan o‘quvchining yurak-yuragiga ta’sir etadi. Undagi Ulug‘bek bilan bir qatorda Ali Qushchi obrazini juda chiroyli chizadi. Ulug‘bek farzandlaridanda bu shogirdini nega yaxshi ko‘rishini bir o‘qishdayoq, Ali Qushchidagi har bir hislat orqali bilishimiz mumkin. U o‘z umri xavfda bilan taqdirida ham Ustoziga , ilmga sodiq qoladi. Abdulatif uni zindonda qancha azoblamasin , u o‘zligini yo‘qotmaydi. Har narsaning qadri ziddi bilan aniqlanadi deganidek, Odil Yoqubov ham bu asarga Mavlono Muhiddin obrazini olib keladi. U ham kuchli bilim egasi, Ulug‘bekning shogirdi edi , lekin u bu qiynoqlarning bittasiga ham chidab berolmaydi. U o‘zini yangi shohga taslim etadi. Ulug‘bek bilan yozgan asarlari uchun uzr ham so‘raydi. O‘zini tuzum ixtiyoriga topshirib, yangi shohga xizmat qiladi. Bunday insonlar har doim bo‘lgan. Mana shundaylarni ko‘rib, Ali Qushchining xizmatlari, matonati qanchalar yuqori ekanini sezamiz. Agarda asarga Muhiddin obrazi romanga kiritilmaganda edi, Ali Qushchining jasorati unchalik e’tiborli ko‘rsatilmasdi. Bunday go‘zal jumlar har ikkala asarda ham ko‘p uchraydi. Bunday asar yaratish uchun buyuk tarix va buyuk yozuvchilar kerak edi. Shunday yozuvchilar bir tarix atrofida birlashdi, bir-birini to‘ldirib keluvchi buyuk asar yaratdilar. Bu durdonalarni bir so‘z bilan: “Buyuk tarix – buyuk asar yaratdi”,– deyishimiz mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Maqsud Shayxzoda .Mirzo Ulug‘bek .-”Yangi kuch” nashriyoti.2019.
2. Odil Yoqubov.Ulug‘bek xazinasi.-“Ilm-ziyo-zakovat”nashriyoti.2019.
3. Mirvaliyev.S, O‘zbek adiblari.-T:”Yozuvchi” , 2000.
4. Yunus Shomansur, Shayxzoda – bunyodkor shoir.T:-1972.
5. XX asr o‘zbek adabiyoti, T.1999.
6. Ўразбаева М. Аёл характери очишда бадиий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 б.
7. Ўразбаева М. Ҳозирги ўзбек романчилигида аёл образи. Т., ILM ZIYO ZAKOVAT. 2023. 120б.
8. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.